

TARIX -BEBAHO MEROS

Islomova Oydin

Nizomiy nomidagi TDPU ning tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tariximizning tiklanishining qisqacha mazmuni, tarixni o'rganishning foydali tomonlari haqida qisqacha fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Qur'oni Karim, fanlar akademiyasi, Qurbon hayiti, Ramazon hayiti, yoshlar ittifoqi,

Inson- bu go'zal xilqat hamda Ollloh yaratgan barcha mahluqotlar ichida eng ulug'idir. Har bir insonga avvalambor hayot nima uchun berilgani hamda shu umrni qay tarzda yashab o'tish kerakligini Tangri tomonidan belgilab berilgan. Buni biz Olllohning elchisi payg'ambarimiz Muhammad Mustafu sollallohu alayhi vasallamga nozil bo'lgan muqaddas Qur'on kitobidan bilamiz. O'tmishdan to hozirgi kungacha insoniyat yaratgan ilm-fan bir-biriga zanjirday bog'lanib rivojlanib dunyo yuzini o'zgartirib kelmoqda. Ezgulikka xizmat qilayotgan ilm-fan kashfiyotlari ba'zan yovuz kuchlar tomonidan insoniyatga zarar yetkazib ham kelmoqda. Bu xavfli kuchlardan yurtimizni qanday asrashimiz kerak buning uchun tashqi muhitdan uzib ham qo'ya olmaymiz. Yagona chora faqat yoshlar emas balkim o'z xato kamchiliklarni ko'raolmayotgan ayrim odamlarning ham tafakkurini rivojlantirish kerakdir balkim. Sababi ularning yoshlik davri qanday tuzumda yashaganligi tarixdan ma'lum. Hozirda biz o'qiyotgan shonli tariximizni mustaqil bo'lib birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning rahnamoligida qilingan say harakatlar bilan tiklandi. Ya'ni ularning 1998 yilda bir guruh tarixchilar bilan uchrashuvida ular qarata «...sizlar millatimizning haqqoniy tarixini yaratib bering, toki u xalqimizga ma'naviy kuch-qudrat baxshbilmasdan turib esa, o'zlikni anglash mumkin emas»¹. deya takidlagan va bu uchrashuvdan so'ng "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asari chop etildi. Yana Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-iyulda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi tarix instituti faoliyatini takomillas etsin, g'ururzluginiini uyg'otsin. Biz yurtimizni yangi bosqichga, yangi yuksak marraga olib chiqmoqchi ekanmiz, bunda bizga yorug' g'oya kerak. Bu g'oyaning zamirida xalqimizning o' anglashi yotadi. Haqqoniy tarixni htirish to'g'risida»gi qaror qabul qilindi². Mustaqillik sharofati bilan diniy va milliy qadriyatlar tiklandi. Xususan Ramazon hayiti, Qurbon hayiti, qadimiy xalq bayrami Navro'zni nishonlay boshladik. Musulmonlar O'zbekiston xalqi tarixida birinchi marta bevosita hukumat homiyligida har yili Haj va Umra amallarini ado etish imkoniyatlarga ega bo'ldilar. Buning natijasida xalqimizning iymon-e'tiqodi yanada mustahkamlanib ma'naviyati oshdi. Bundan ko'nglimiz shod bo'lib xotirjamlikda

yashayapmiz desak mubolag'a bo'lmaydi. Ammo hozirda taraqqiyot mevasi bo'lgan virtual olam orqali jamiyatimizning iymon-e'tiqod zaiflashib, manaviyati susayib ketayotganini ko'rib achinish va hadik tuyg'usi uyg'ondi. Negaki yoshlarga qo'shilib hayotni ko'rgan katta insonlar ham hayotning asl mazmuni deb ko'p daromad topish va uni mantiqsiz orzu havaslarga ishlatishi ko'payib buning natijasida oilaviy nizo, ajrimlar, tarbiyasi og'ir bolalar, jamiyatda ilm olmasdan turib ham katta daromad topish mumkin degan tushunchaning paydo bo'lishiga olib keldi. Bu naqadar achchiq haqiqat lekin ko'z o'ngimizda bo'layotgani uchun buni inkor qilaolmaysiz. Tariximiz tiklandiku biz uni o'qib insoniyat qanday yutuq va xatolarga yo'l qo'yganini bilib undan saboq chiqarish imkoniyatimiz bor. Eng achinarlisi shundaki, Islom dini rivojlangan Imom al-Buxoriy yashab o'tgan diyorda, ulardan bebaho meros qolgani va biz u orqali payg'ambarimiz Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallamning hayotini o'qib turib ham bu xatoga yo'l qo'yyotgani. Bu aytayotganim mustaqillikdan keyin tiklandi, undan oldin maktabni bitirgan kattalarning xabari yo'q degan javob berishingiz mumkin. Biroq bu ilmni televideniya, imomlarimiz orqali ham olmoqdasiz. Agar biz yevropacha qarashni ma'qullab ularni orqasidan ergashaversak 20 30 yildan keyingi jamiyatni e'tiqodi sust, loqayd, bilimsiz odamlar tashkil etadimi. Aniqrog'i virtual olam "manqurtlari", yana biz bu jamiyat bilan yurtimizni qanday asray olamiz degan savol tug'iladi. Bu aytayotganim ko'pirtirilgan quruq gap emas. O'zbekistonda joriy yilning 10 oyi davomida 41 583 ta oilaviy ajrim qayd etildi.³Bularning oldini olish maqsadida mamlakatimizda qancha islohotlar olib borilmoqda :

- Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida ⁴

- Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida .⁵

Bularning barchasi jamiyatimiz foydasi uchun qilingan va hozirgacha etibor markazdagi masala bo'lib qoladi. Jamiyat haqida qayg'urish faqat davlat zimmasidagi, bazi shunday toifadagi insonlar ham uchrab qoladi. O'zi hech bir kasbni egallamay ijtimoiy muammolardan nolib qo'yadi vaholanki bunday muamolar rivojlangan AQSH, Yaponiya Buyuk Britaniya, Germaniya va boshqa mamlakatlarda yo'q deysizmi. Undan tashqari farzandining tarbiyasini o'qituvchilarga yuklab o'zini va bolasini kamchiligini ko'rolmaydigan ayrim ota-onalar esa ustozlarning mashaqqatli mehnatiga ortiqcha tashvish bo'lmoqda..

Xulosa

Xulosa qilib aytganda tarixni o'qish faqat tarixchilar uchun emas, qaysi kasb egasi bo'lmang yaxshi yomonni, insoniyat asl hayoti nimaligini, qanday qilib chinakkam baxtga erishish yo'llarini, tarixni o'qib tahlil qilib topishingiz uchun hayotiy qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Farzandlarning nazdida baxt bu moddiyatda

deb unga xirs qo'ymasdan muqaddas kitobimiz Qur'oni Karimni , Imom al-Buxoriy hadislarini o'qib bering yod oldiring bularning barchasi bizga bebaho meros tarixdan qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Q.USMONOV, M. SODIQOV S.BURXONOVA. O`zbekiston tarixi. Toshkent«IQTISOD-MOLIYA» 2016.
2. I.A.Karimov. Tarixiy Xotirasiz kelajak yo'q. T.:Sharq ", 1998 yil .153-bet
3. <https://lex.uz/docs/>
4. <https://kun.uz/uz/news/>